

Ijtimoiy-siyosiy sohaga oid savollar

1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan va tuzilishi to‘g‘risida gapirib bering.

2. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng necha tahrirda Konstitutsiya qabul qilindi hamda mamlakatimizda Konstitutsiya kuni qaysi kuni bayram sifatida nishonlanadi?

3. O‘zbekiston Respublikasida bugungi kunda nechta partiya faoliyat yuritmoqda?

4. Ma‘lumki, 2023 yil 9 iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov jarayonlari bo‘lib o‘tdi. Mazkur saylovga amaldagi partiyalardan ko‘rsatilgan nomzodlarni sanab bering.

5. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limga oid qanday normativ huquqiy hujjatlarni bilasiz?

6. “Miranda qoidasi” haqida nimani bilasiz?

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri kim?

8. O‘zbekistonda an’anaviy ravishda o‘tkaziladigan “Yoshlar kuni” qaysi sanada nishonlanadi?

9. O‘zbekiston Respublikasida hokimiyatlar bo‘linishini aytib bering?

10. O‘zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyat nima va uning tuzilishi to‘g‘risida gapiring?

11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Senat raisi kim?

12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri kim?

- 13. O‘zbekiston xalqi nomidan kimlar gapirishga vakolatli?**
- 14. “Geosiyosat” tushunchasiga ta’rif bering.**
- 15. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi qachon bekor qilingan?**
- 16. O‘zbekiston Respublikasi BMTga qachon a’zo bo‘lgan?**
- 17. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach qaysi davlat tomonidan qachon birinchilardan bo‘lib suveren davlat sifatida tan olingan?**
- 18. 2022-yil sentabrda ShHT sammiti qayerda bo‘lib o‘tdi hamda unda qatnashgan tashkilotga a’zo davlatlar va kuzatuvchi davlatlar nomini aytib bering.**
- 19. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach qaysi davlat tomonidan qachon birinchilardan bo‘lib suveren davlat sifatida tan olingan?**
- 20. O‘zbekiston Respublikasi Fan, ta’lim sohasi bo‘yicha Prezident maslahatchisi kim?**
- 21. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri kim?**
- 22. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri kim?**
- 24. O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalari nechanchi hokimiyat tizimiga kiradi?**
- 24. “Oila” atamasi, uning ta’rifi va O‘zbekistonda oila institutini tartibga soluvchi normativ huquqiy hujjatlarni sanab bering.**
- 25. O‘zbekiston Respublikasida hukumat rahbari kim?**
- 26. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qaysi hokimiyat tarkibiga kiradi?**

- 27. Fuqarolik jamiyati deganda nimani tushunasiz?**
- 28. «Plyuralizm» so'zining manosi nima hamda uning milliy qonunchilikdagi aksi.**
- 29. «Prezident» so'zi qanday ma'noni anglatadi?**
- 30. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini sanab bering.**
- 31. Xalqaro huquq sohasi hamda milliy qonunchilikda o'z aksini topgan «Xabeas korpus» atamasiga ta'rif bering?**
- 32. Normativ huquqiy hujjat tushunchasiga ta'rif bering?**
- 33. O'zbekiston Respublikasining “Mustaqillik deklaratsiyasi” qachon qabul qilindi?**
- 34. O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlaridan biri davlat bayrog'i qachon qabul qilingan?**
- 35. O'zbekiston tashqi siyosati qanday prinsiplarga asoslanadi?**
- 36. «Fuqarolik» atamasiga ta'rif bering?**
- 39. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan fuqarolarning burchlarini kamida 3 tasini sanab bering?**
- 40. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiya yaratilishda qaysi xalqaro huquqiy hujjat alohida ahamiyat kasb etgan?**
- 41. “Deputat” so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?**

42. Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan Prezidentning vakolat muddati nechi yil etib belgilangan.

43. O‘zbekiston davlat hokimiyati tarmog‘i uch hokimiyat faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mustaqil organ qaysi?

44. O‘zbekistonda mulkdorlar qatlami, ishbilarmonlar manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi siyosiy partiyani ko‘rsating?

45. O‘zbekistonda birinchi ta’sis etilgan orden nomi va u qachon joriy etilgan?

47. O‘zbekiston Respublikasida vakolat muddati tugagandan so‘ng iste’foga chiqqan prezident qaysi lavozimda faoliyat yuritadi?

48. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib kimlar, qancha muddatga saylanish huquqiga ega?

49. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi prezidenti o‘z vazifasini bajara olmaganda uning vakolatlari vaqtincha kimga topshiriladi?

52. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti qanday normativ-huquqiy hujjatlarni chiqaradi?

53. Viloyatlar va Toshkent shahar hokimi kim tomonidan vazifasiga tayinlanadi va ozod etiladi?

54. O‘zbekiston Respublikasi qanday boshqaruv shakliga ega davlat hisoblanadi?

55. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlaridan qaysi davlatlar bilan chegaradosh?

56. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri kim?

57. O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzlarini sanab bering.

58. “Konstitutsiya” so‘zi qaysi tildan olingan va nima ma‘noni anglatadi?

59. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining vakolat muddat qancha?

60. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining yuqori palatasi nima deb ataladi?

61. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining quyi palatasi nima deb ataladi?

62. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan shaxs sudning qarorisiz necha soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emas?

63. Konstitutsiyaga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati necha yil?

64. Ta‘lim oluvchining dastur bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari o‘rtacha qiymati nima deb ataladi?

65. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son qaroriga asosan bir fanga ajratilgan auditoriya soatining necha foizini sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo‘yicha tegishli kreditlarni o‘zlashtirmagan hisoblanadi?

66. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 393-son qaroriga asosan talaba qanday hollarda talabalar safidan chetlashtirilishi mumkin?

67. O‘zbekiston Respublikasining “Yangi O‘zbekiston – Taraqqiyot strategiyasi” mazmun mohiyati haqida gapiring?

68. “Gender tenglik” tushunchasiga ta’rif bering hamda bu narsa Konstitutsiyamizdagi qaysi moddada o‘z aksini topgan?

69. O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksiga binoan fuqarolar necha yoshdan saylash huquqiga ega bo‘ladilar?

70. Fuqarolarning huquq layoqati va muomalaga layoqatliga ega bo‘lishini tushuntiring.

71. Soliq deganda nima tushuniladi?

72. O‘zbekistonda qonunchilikka asosan qaysi kunlar bayram kunlari deb belgilangan?

73. Normativ huquqiy hujjat tushunchasi va uning turlari.

74. So‘z erkinligi deganda nimani tushunasiz?

75. Vijdon erkinligi deganda nimani tushunasiz?

76. «Diskriminatsiya» tushunchasiga ta’rif bering.

77. «Ratifikatsiya» so‘zining ma’nosi nima?

78. «Respublika» so‘zining ma’nosi nima va qaysi tildan olingan?

79. Qonunchilikka asosan O‘zbekistonda murojaatlar necha xil shaklda bo‘lishi mumkin?

80. “Ichki tartib qoidalari” deganda nimani tushunasiz.

1. Mafkuraviy tajovuz deganda nima tushuniladi?

2. Ma’rifat deganda nima tushuniladi

- 3. Millatparastlikning mazmun-mohiyati qanday?**
- 4. Mafkuraviy bo'shliq atamasiga izoh bering?**
- 5. Radikalizmning mazmun mohiyati qanday?**
- 6. Fundamentalizm deganda nima tushuniladi?**
- 7. Ma'naviyat deganda nimani tushunasiz ?**
- 8. "Ommaviy madaniyat" nima o'zi? Uning jamiyatga va kelajakka foyda-ziyoni qayerda ko'rinadi?**
- 9. Milliy g'oya deganda nima tushuniladi?**
- 10. Korrupsiya deganda nimani tushunasiz Millatlararo totuvlik deganda nima tushuniladi?**
- 11. Sizningcha globallashuvning zararli oqibatlariga qarshi tura olishda qanday yo'l tutish lozim?**
- 12. Globallashuvning ijobiy tomoni nimalarda ko'rinadi?**
- 13. Inson ma'naviyatini shakllanishida mahallaning o'rni qanday?**
- 14. Ta'lim turlari va shakllarini sanab bering?**